

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MINOJIDDINOV ABDURASUL BAXODIROVICH

**OILA HUQUQIDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI
TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Minojiddinov Abdurasul Baxodirovich

Oila huquqida aliment majburiyatlarini huquqiy tartibiga solinishi.....3

Миножиддинов Абдурасул Баходирович

Правовое регулирование алиментных обязательств в семейном праве.....19

Minozhiddinov Abdurasul Bakhodirovich

Legal regulation of alimony obligations in family law.....37

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications 41

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MINOJIDDINOV ABDURASUL BAXODIROVICH

**OILA HUQUQIDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI
TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1440 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurillo Fayzullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karaxodjaeva Dilorom Mamirovna
yuridik fanlar doktori, professor

Nuralieva Zulfiya Alisherovna
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 22-noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1443-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko'chasi 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 3-noyabrdagi 97-raqamli reyestr bayonnomasi).



U. Pyemov

I.R. Rustambekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu. Habibullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

D.K.Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda oila a'zolarining bir-biriga nisbatan o'zaro hurmati, g'amxo'rliigi va har tomonlama qo'llab-quvvatlashi qon-qarindoshlikning asosiy belgilari sifatida baholanadi va davlat tomonidan tegishli tartibda qonunchilik darajasida nazarda tutiladi. Oila qonunchiligi yordamga va moddiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan farzandlar, ota-onalar va qarindoshlarni oila a'zolari va boshqa qarindoshlar tomonidan ixtiyoriy ta'minlanishini keng yo'l ochib beradi. Biroq moddiy ta'minot berishi lozim bo'lgan va bunga qodir bo'lgan oila a'zolari hamda qarindoshlar tomonidan bu majburiyatlar bajarilmaganida aliment to'lash sudning qarori asosida amalga oshirilishi deyarli barcha davlatlarning qonunchiligi qat'iy belgilangan norma sanaladi. Aliment majburiyatlarini bajarmaslik aliment to'lovchiga nisbatan qonunchilikda belgilangan javobgarlikni vujudga keltiradi. Masalan, Germaniyada aliment miqdori to'lovchining daromadidan kelib chiqib 200 yevrodan 700 yevrogacha bola 25 yoshga to'lguniga qadar undiriladi va uni to'lamagan shaxslarga axloq tuzatish ishlari tayinlanadi. Kanada va AQSHda aliment to'lamagan 20 mingga yaqin kishi ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa, Kanada va Isroil davlatlarida aliment haydovchilik huquqidan mahrum etiladi va ularning fotosurati barchaga oshkor qilish uchun maxsus saytda e'lon qilinadi. Fransiya, Italiya, Ozarbayjon kabi mamlakatlarda ham aliment to'lmagan shaxslar ham ozodlik mahrum etish jazosi bilan jazolanishi mumkin¹.

Jahonda aliment majburiyatlarini, aliment to'lovchilar va aliment oluvchilar doirasini hamda aliment miqdorini belgilashda turlicha huquqiy yondashuvlar amal qiladi. Xususan, Latviyada aliment miqdori bolaning yoshiga qarab ko'payib borishi, aliment to'lovchi o'z majburiyatini bajarmaganida ta'minot maxsus fondan ajratilishi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Fransiya, Vengriya kabi mamlakatlarda aliment to'lash ota-ona ajrashganidan keyin bolaning yashash joyini belgilash paytida natura yoki pul shaklida belgilanadi va aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvlar tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ayni paytda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun maxsus aliment fondlarini tashkil etish tendensiyasi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida alimentning o'ziga xos oilaviy-huquqiy institut sifatidagi yuridik tabiatini tahlil qilish, aliment to'lovchi va aliment oluvchilar manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, aliment to'lovchining real daromadlari miqdorini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, chet elda ishlayotgan aliment to'lovchlarning daromadlari miqdorini aniqlashda hamkorlik qilish kabi muhim amaliy va huquqiy choralarni taqozo etadi. Zero, keyingi yillarda globallashuv, davlatlar o'rtasida ro'y berayotgan harbiy va siyosiy qarama-qarshiliklar aliment oluvchilarning ahvolini yana yomonlashuviga sabab bo'lmoqda va mazkur holatda maxsus aliment fondlarini tashkil etish, aliment oluvchilarni moddiy ta'minoti harbiy xizmatchi bilan tuziladigan shartnomalarda ham aks etishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Какие алименты платят в разных странах мира?// <https://dzen.ru/a/XbkQwPxpqwCsuuHE>

O‘zbekiston fuqarolik va oila huquqi sohasida aliment majburiyatlari oila a‘zolari va boshqa qarindoshlarning moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan oila a‘zosiga ko‘maklashishning o‘ziga xos huquqiy va majburiy mexanizmi sifatida belgilangan.

Qonun yoki kelishuv asosida amal qiladigan mazkur majburiyat dastlab ixtiyoriy ravishda taraflarning ixtiyorida qoldirilgan va uning oqibatiga qarab majburiy tartibga o‘tishi mumkin.

Bugungi kunda alimentlarni belgilash va undirish borasida mamlakatimizda ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi va qonunchilikka o‘ziga xos novellalar kiritildi. Bular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Aliment to‘lovlari jamg‘armasi tashkil etilganligi hamda “alimentlarni oldindan to‘lash, shuningdek aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash bo‘yicha garov shartnomasini tuzish tartibi” ishlab chiqilganligini kiritish mumkin.

Shunga qaramasdan hozirda aliment majburiyatlarini huquqiy tartibga solishda qonunchilik normalarining nomukammaligi, aliment to‘lovchi daromadlarini aniqlash tizimining talab darajasida emasligi, bola bilan birga yashaydigan ota yoki onaning suiiste‘molikka yo‘l qo‘yish imkoniyati mavjudligi, sobiq er-xotin aliment majburiyatlarini belgilashda qonunchilikdagi nomuvofiqliklar o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiy-amaliy muammolar jumlasiga kiradi. Qolaversa, zamonning shiddat bilan rivojlanayotganligi, Internet va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni hayotning barcha jabhalarida qo‘llanilayotganligi, virtual olam va sun‘iy intellekt orqali daromad topish imkoniyatining kengayib borishi alimentlar miqdorini hisoblash, aliment to‘lovchining real daromadlarini aniqlashga nisbatan ham yangi chaqiriq va muammolarni yuzaga keltirishi oila huquqida aliment majburiyatlarining tartibga solish mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995, 1996), Oila kodeksi (1998), Uy-joy kodeksi (1998), Fuqarolik protsessual kodeksi (2018), O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi (2001) “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi (2014) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022) “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022) Farmonlari, “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (2021) va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oila huquqida aliment majburiyatlari O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan. Shunday bo‘lsada oila huquqiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlar predmetining tarkibiy qismi sifatida aliment majburiyatlarining u yoki bu masalalari yoritilgan holatlar mavjud.

Jumladan, alimentga oid ayrim tahlillar F.M.Otaxo‘jayev, Z.N.Esanova, B.R.Topildiyev, M.X.Samarxodjayeva, Sh.R.Yuldasheva, U.Sh.Shoraxmetova, G.Inomjanova, I.B.Djurayevalarning asarlarida uchraydi.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan: P. S.Atiyah, S.Cretney, G.Douglas, I.M.Ellman, M.S.Ellman, J.M.Masson, J.Carruthers, S. Gilmore, R.A.Rhoades, R.A.Rhoades, J.W.Singer, D.J.Smith, J.Eekelaar, G.Thomas, M.Haughey va boshqalar tomonidan oila huquqida aliment majburiyatlarining u yoki bu jig‘atlari tadqiq etilgan.

MDH davlatlari olimlaridan aliment majburiyatlari M.V.Antokolskaya, L.V.Afanaseva, O.A.Davidova, O.Yu.Kosova, V.P.Mironenko, Z.V.Romovskaya, L.V.Krasitskaya, L.I.Patseva, N.S.Rumyanseva va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining “Oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlash hamda bolalar va ayollar manfaatlarini himoya qilish” ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ustuvor yo‘nalishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oila huquqida aliment majburiyatlarini huquqiy tartibga solishga doir muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, milliy va xorijiy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish asosida aliment majburiyatlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oila huquqida aliment tushunchasi va uning huquqiy tabiatiga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

alimentga oid qonunchilik normalarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq qilish;

aliment majburiyatlarining vujudga kelish asoslarini yoritish va tasniflanishi amalga oshirish;

ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari amal qilishning o‘ziga xos jihatlarini asoslantirish;

er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlarini qo‘llash muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga oid yechimlarni ishlab chiqish;

qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlarining vujudga kelish va amal qilish asoslarini tadqiq qilish;

aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishga oid tavsiflarni ilgari surish;

oila huquqida alimentlarni to‘lash tartibini aniqlash tartibiga oid takliflarni asoslantirish;

oila huquqida alimentlarni undirishni tartibga solish muammolari aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini taklif qilish.

Tadqiqotning **obyekti** oila huquqida aliment majburiyatlarini tartibga solinishiga oid fuqarolik-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti oila huquqida aliment majburiyatlarini tartibga solinishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, emperik tadqiqot, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalar ta'minoti uchun aliment taraflarning kelishuviga ko'ra ixtiyoriy tartibda undirilishi asoslangan;

ota-onaning birining arizasi yoki da'vosi bilan, agar boshqa ota (ona) voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini bajarmagan holatlarda sud tartibida (sud buyrug'i yoki sudning hal qiluv qarori bilan) undirilishi lozimligi asoslangan;

aliment to'lash haqida kelishuv bo'lmaganda, shuningdek, aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilmagan hollarda, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan aliment undirish haqidagi da'vo bilan voyaga yetmagan o'n to'rt yoshga to'lgan bola murojaat qilishga haqli ekanligi asoslangan;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun aliment tegishli organlari va muassasalar, shuningdek, prokuror da'vosiga ko'ra, sudning hal qiluv qaroriga asosan undirilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aliment to'lash mexanizmlari hamda aliment to'lovchini aliment majburiyatlarini bajarishga undaydigan choralarni aniqlashtirishga oid takliflar asoslantirilgan;

voyaga yetmagan bolalarni aliment mablag'larini tasarruf etishda ishtiroki ularning muomala layoqati darajasidan kelib chiqib belgilanishi zarurligi asoslab berilgan;

taraflarning o'zaro ixtiyoriy kelishuvi asosida aliment miqdori va uni to'lash tartibini nazarda tutuvchi qoidalarni OKga kiritish zarurati asoslantirilgan;

aliment fondi manbalarini kengaytirish zarurati, bunda sudga kiritilgan davlat bojining muayn qismini mazkur fondaga yo'naltirish tartibini joriy etish lozimligi asoslangan;

aliment to'lovchining daromadlarini aniqlash tartibini takomillashtirish, bunda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga oid tavsiflar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish shaklidagi va natijalari vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan va amalga oshiriladigan sotsiologik tadqiqotlar tahliliga asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shundan iboratki, tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nazariy va ilmiy xulosalar xalqaro ilmiy asoslar va boshqa rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. O'rganish jarayonida bildirilgan takliflarning bir qismi amaliyotga tatbiq etilib, tegishli vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan. Tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy g'oyalar va qonun

hujjatlariga berilgan takliflardan aliment majburiyatlarini huquqiy tartibga solish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishda, tegishli qonun hujjatlarini sharhlashda, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, oila huquqi, uy-joy huquqi, fuqarolik huquqi kabi fanlarni o'qitishda hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

voyaga yetmagan, shuningdek, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalar ta'minoti uchun aliment taraflarning kelishuviga ko'ra ixtiyoriy tartibda undirilishiga oid taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 12-son Qarorining 4-bandi ("Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarorining 2-bandi birinchi xatboshisi)ni ishlab chiqib foydalanilgan. Mazkur taklif aliment majburiyatlarining vujudga kelish asoslarini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

ota-onaning birining arizasi yoki da'vosi bilan, agar boshqa ota (ona) voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini bajarmagan holatlarda sud tartibida (sud buyrug'i yoki sudning hal qiluv qarori bilan) undirilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 12-son Qarorining 4-bandi ("Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xatboshisi)ni ishlab chiqishda inobatga olingan. Ushbu taklif aliment to'lashning ixtiyoriy va majburiy tartibini qo'llash tartibini o'rnatishga azmin yaratgan;

aliment to'lash haqida kelishuv bo'lmaganda, shuningdek, aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilmagan hollarda, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan aliment undirish haqidagi da'vo bilan voyaga yetmagan o'n to'rt yoshga to'lgan bola murojaat qilishga haqli ekanligi xususidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 12-son Qarorining 4-bandi ("Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta'minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida" 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarorining 2-bandi uchinchi xatboshisi)ni ishlab chiqishda foydalanilgan. Mazkur taklif voyaga yetmagan o'n to'rt yoshga to'lgan bolaning aliment to'lash haqida sudga mustaqil murojaat qilish huquqi o'rnatilishiga asos bo'lgan;

ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar ta‘minoti uchun aliment tegishli organlari va muassasalar, shuningdek, prokuror da‘vosiga ko‘ra, sudning hal qiluv qaroriga asosan undirilishi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 12-son Qarorining 4-bandi (“Sudlar tomonidan voyaga yetmagan va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz bolalar ta‘minoti uchun aliment undirishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” 2016-yil 29-iyuldagi 11-sonli qarorining 2-bandi to‘rtinchi xatboshisi)ni tayyorlashda inobatga olingan. Ushbu taklif vasiylik va homiylik organlari, bola tarbiyalanish yoki parvarishlashda bo‘lgan muassasalar hamda prokurorning da‘vosiga ko‘ra aliment undirilishi mumkinligini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish (2 tasi xorijiy nashrlarda) va 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oila huquqida aliment majburiyatlarining umumiy tavsifi”** deb nomlangan birinchi bobida oila huquqida aliment tushunchasi va uning huquqiy tabiati, oila huquqida alimentga oid qonunchilik normalarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, oila huquqida aliment majburiyatlarining vujudga kelish asoslari va tasniflanishi tadqiq etilgan.

Global axborot maydonining kengayib borishi, turli hildagi qarashlar va yondoshuvlarning kirib kelishi ta‘sirida oilaviy qadriyatlar sohasida alohida huquqiy mexanizmlar va qoidalar yaratishni taqozo qilmoqda. Qachonlardir ajrashish va nikohni bekor qilish yot bo‘lgan O‘zbekistonning milliy qadriyatlarining o‘zgarishi oqibatida ajrashishlar, migratsiya va ish izlab boshqa xududlarda yashash sababli er-xotinlarning bir biridan alohida yashashi ko‘payib bormoqda.

Mazkur vaziyatda aliment va ularni to‘lash bo‘yicha majburiyatlar yuqori ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Aliment majburiyatlarini to‘g‘ri belgilanishi, aliment

to'lovchi daromadlarni aniqlashning samarali mehnaizmlarini joriy qilishini, undiruv jarayoniga tezkor va ta'sirchan choralarni qo'llanishi voyaga yetmagan bolalar va ularning onalari huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyada huquqshunos olimlar (A.I.Pergament, N.M.Yershova, Ye.Yu.Kostyuchenko, S.P.Grishayev, O.A.Davidova, Z.V.Romovskaya, L.V.Afanaseva, G.Thomas, M.Haughey)ning aliment majburiyatlarining tushunchasiga oid fikrlari tahlil qilinib, aliment majburiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va alimentning mohiyati ochib berilgan. Shu bilan birga muallif xorijiy mamlakatlar (Xitoy, Rossiya) qonunchiligining tahlil qilish barobarida OKning 79-moddasi takomillashtirish yuzasidan taklifni ilgari surgan va OKdagi aliment to'g'risida belgilangan qoidalar asosida alimentlashning ikki xil konsepsiyasini asoslab bergan.

Tadqiqot ishida aliment majburiyatlarining mamlakatimiz huquqshunoslik tarixidagi rivojlanishi, bunda tarixiy-huquqiy manba sifatida Avesto va islom huquqida aliment majburiyatlarini huquqiy asoslari tadqiq etiladi. Bunda zamonaviy islom huquqi amal qilayotgan mamlakatlar (Markosh, Malayziya) hamda O'zbekistonning aliment qonunchiligi qiyosiy o'rganilib, milliy qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Bundan tashqari muallif G'arbiy Yevropa davlatlari (Shotlandiya, Angliya, Uels)ning huquqi tadqiq etilib, aliment majburiyatlarni belgilash, aliment tarzida amalga oshirilayotgan to'lovlarning miqdorini belgilash hamda alimentlarni hisoblash qoidalarini takomillashtirish, bunda alimentning adolatli va real vaziyatga mos miqdorini o'rnatish tartibini liberallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyada keltirilishicha, bugungi kunda bank va moliya tizimining rivojlanishi, to'lovlarning vertual va onlayn tizimlarini yuzaga kelayotganligi hamda aliment to'lovchilar daromadini nazorat qilishning qonuniy mehanizmlari kuchayib borayotganligi oila a'zolarining o'zaro aliment munosabatlari tartibga solishga nisbatan yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

Amaldagi qonunchilik voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni aliment huquqi saqlanib qolish imkoniyatini nazarda tutmaydi. Bu holatda bola o'qishini davom ettirayotgan va o'zini ta'minlay olish imkoniyatiga ega emasligi ham inobatga olinmaydi. Muallifning fikricha, mazkur jihat qonunchilikda inobatga olinishi, o'qishini davom ettirib, o'zini moddiy ta'minlay olmayotgan voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlariga ota-onaning aliment majburiyatlari, u o'qishini tugatgungacha saqlanib qolishi lozim.

“Oila a'zolari va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlarini belgilash shartlari va tartibi” deb nomlangan ikkinchi bobda ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari amal qilishning o'ziga xos jihatlari, er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlarini qo'llash muammolari, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlarining vujudga kelish va amal qilish asoslari, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish tahlil qilinadi.

Tadqiqot ishida ta'kidlanishicha, amaldagi oila qonunchiligini tahlil qilib, aliment majburiyatlari uchta subyekt – aliment to'lovchi, oluvchi va bola (yoki voyaga yetgan qizi, o'g'li) mavjudligi bilan tavsiflanadi, deb ta'kidlash mumkin. “Aliment to'lovchi” va “oluvchi” atamalaridan foydalanish OKda bunday so'zlarning ko'p marotabalab qo'llanilishi bilan bog'liq.

Dissertatsiyada huquqshunos olimlar (B.R.Topildiyev, V.P.Mironenko, Z.V.Romovskaya, L.V.Krasitskaya, L.I.Panova) fikrlari tahlil qilinib, aliment to‘lash majburiyatlarining vujudga kelishi uchun asos bolaning nasl-nasabi va sud qarori yoki ota-onalar o‘rtasida bola uchun aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning mavjudligi degan xulosaga kelingan. Muallifning fikricha, “bolaning maqomi” ni asos sifatida ajratib ko‘rsatishning zarurati yo‘q, chunki bolaning huquqiy maqomiga shaxs voyaga yetgunga qadar ega ekanligi qonunchilik darajasida to‘g‘ri belgilanadi.

Tadqiqotda keltirilishicha ta‘minotga bo‘lgan huquq yordamga muhtoj (mehnatga layoqatsiz) shaxsga boshqa shaxslar hisobidan turmush kechirishini ta‘minlash uchun berilgan yuridik imkoniyat hisoblanadi. Ta‘minot, nafaqat uni olishga haqli bo‘lgan shaxs turmush kechirishini ta‘minlash, ya‘ni ovqatlanish uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni nazarda tutadi, balki boshqa zaruriy ehtiyojlar – bilim olish, tarbiyalanish, dam olish, da‘volanish va shu kabilarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston oila qonunchiligida belgilangan aliment to‘lashning standart qoidalari hamda aliment to‘lovchilarning real daromadlarini yashirishga urinish holatlari yordamga muhtoj aliment olishga haqli bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazadi. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda ham “reabilitatsiyalovchi” alimentlarni joriy etish maqsadga muvofiq xisoblanadi. Qolaversa aliment miqdorini xisoblashda kompyuter dasturlarini joriy etish, aliment to‘lovchining real daromadlarini aniqlash tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Muallifning yozishicha, ayrim davlatlar (Ukraina)ning qonunchiligida bobobuviga aliment berish majburiyati nafaqat nevaralarga balki evaralarga nisbatan ham belgilanish holatlari mavjud. Dissertantning fikricha OKning 130-moddasida taraflarning o‘zaro ixtiyoriy kelishuvi asosida aliment miqdori va uni to‘lash tartibini nazarda tutuvchi normani kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv oila huquqida amal qilgan imperativ tartibga solishga qo‘shimcha sifatida shartnomaviy konstruksiyaga o‘tilishini ifoda etadi. Oila huquqida shartnomalarga bag‘ishlangan mustaqil tartibga solish mavjud emasligi esa, mazkur kelishuvning huquqiy tabiatini tahlil qilish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Mazkur holat oila huquqini hususiy huquq sohasi sifatida e‘tirof etish va fuqarolik huquqi bilan bog‘liq ekanligini anglash nuqtayi nazaridan asoslidek ko‘rinadi. Qolavkrsa, oila huquqi sohasini oilaviy munosabatlarni mulkiy jihatdan tartibga solinishini kuchaytirish nuqtayi nazaridan o‘rinlidir. Zero, mazkur institut ikki jihatdan sohaviy va maqsadli asosga ko‘ra yoritiladi.

Dissertatsiyada aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning mohiyati borasida bir qator huquqshunos olimlar (Ye.O.Suris, Ye.P.Titaninko, O.A.Davidova, X.Raxmonqulov, S.Yu.Filippova, N.F.Imomov)ning fikrlari tahlil qilinadi. Muallifning ta‘kidlashicha oila qonunchiligida, oilaviy huquqiy shartnomalarning tarkibi va shartlari to‘g‘risidagi maxsus normalar mavjud emas. Shu sababli aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning muhim shartlarini tahlil etishda, FK qoidalaridan kelib chiqish lozim bo‘ladi.

Ayni paytda amaldagi oila qonunchiligi aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv shartlari masalasida noaniq pozitsiyani tanlagan. Shu sababli uni takomillashtirish maqsadga muvofiq. Muallifning fikricha, OKning 133-134-moddalarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Oila huquqida alimentlarni to‘lash va undirishni huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish”** – deb nomlanib, unda oila huquqida alimentlarni to‘lash tartibini aniqlash tartibi, oila huquqida alimentlarni undirishni tartibga solish muammolari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Aliment to‘lash ixtiyoriy va majburiy (sud) tartibida amalga oshiriladi. Bunda aliment to‘lashi lozim bo‘lgan shaxs aliment oluvchi bilan o‘zaro kelishuvga ko‘ra yoki sudning qaroriga binoan belgilangan miqdordagi summani turli usullar va vositalar bilan to‘lashi lozim bo‘ladi.

Ishda bir qator olimlar (X.B.Abduraxmonova, L.Ye.Chicherova, A.L.Shilovskaya)ning fikrlari o‘rganilib, aliment to‘lashda aliment to‘lovchining daromadlarini aniqlashga oid qoidalarni takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyada keltirilishicha aliment qarzining miqdori sudning xal qiluv qarori yoki notarial tasdiqlangan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvda belgilangan aliment miqdoridan kelib chiqqan holda davlat ijrochisi tomonidan aniqlanadi. Bunda voyaga yetmagan bolalar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan qarzning summasi undirilmagan vaqt uchun aliment to‘lovchining ish haqi va daromadi miqdoridan kelib chiqib xisoblanadi. Mazkur davrda aliment to‘lashi lozim bo‘lgan shaxs ishlamagan yoki uning ish haqi va daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo‘lsa, aliment qarzi undirilayotgan vaqtda O‘zbekiston Respublikasidagi amaldagi o‘rtacha ish haqi miqdoridan kelib chiqib xisoblanadi.

Aliment miqdori va uni to‘lash tartibi bo‘yicha aliment oluvchilarning manfaatlarini ta‘minlashda alimentni undirish bilan bog‘liq muammolarni kompleks ravishda hal etish lozim bo‘ladi. Bunda davlat organlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati hamda qonunchilikni qo‘llashdagi o‘zaro muvofiqlashgan ish olib borishlari zarur. Chunki, aliment olishga muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlari davlat organlarining o‘z vaqtida va samarali faoliyat olib borishlaridan manfaatdordir.

Aliment majburiyatini ijro etish muammosi aliment to‘lovchining real daromadlarini aniqlash mumkin bo‘lmaganligi bois yanada murakkablik kasb etadi. Bunda aliment to‘lovchining qonuniy (tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan) va “soyadagi daromadlar”ining umumiy qiymatini aniqlash mumkin bo‘lmaydi. Zero amaldagi qonunchilikda “soyadagi daromad”lar muammosi hal etilmagan. Shu bois noinsof shaxs uchun o‘zi oladigan daromadlarini va ularning miqdorini yashirish juda oson kechadi. Chunki bunday daromadlar ko‘p holatlarda xech bir hujjatda qayd etilmaydi yoki bu borada tegishli organlarda ma‘lumot mavjud bo‘lmaydi.

Bugungi kunda aliment to‘lovi qaratiladigan ish haqi va boshqa daromadlarning qat’iy ro‘yxati qonunchilikda nazarda tutilmagan. Shu sababli amaliyotda aliment to‘lovchining real daromadlarini aniqlash va ularning haqiqiy miqdorini belgilash muammosi yuzaga kelmoqda. Muallifning fikricha, mazkur muammoni shoshmashosharlik bilan va darhol hal etish mumkin emas. Buning uchun aliment to‘lovchiga va uning ish beruvchisiga nisbatan rag‘batlantirish va cheklash tusidagi choralarni qamrab oladigan kompleks yondashuv zarur bo‘ladi.

XULOSA

“Oila huquqida aliment majburiyatlarini tartibga solinishi” mavzusida amalga oshirilgan tahlillar natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonun ijodkorligiga oid takliflar va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy nazariy xulosalar:

1. Alimentni undirishni takomillashtirishning asosiy jihatlaridan biri bu aliment undirish taomilini soddalashtirishdir. Bunga byurokratik jarayonlarni qisqartirish, undirish tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning mavjudligini yaxshilash, shuningdek aliment undirish to‘g‘risidagi da‘vo arizalarni topshirish va qayta ishlash uchun elektron tizimlar va onlayn platformalardan foydalanish kiradi.

2. Dissertatsiyada aliment majburiyatlarining mohiyati bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda amal qiluvchi nazariyalar o‘rganiladi. Bunda “hamjihatlik nazariyasi (Qit‘a Yevropasi), “kompensatsiya nazariyasi (Fransiya, anglo-amerika tizimi)”, “ehtiyoj (ijtimoiy yordam) nazariyasi (Nordik modeli, anglo-amerikan ta‘siri)”, “adolat va tenglik nazariyasi (Anglo-sakson huquqi)”, “restitutsiya nazariyasi (AQSH, Kanada)”, “sherikchilik (hamkorlik) nazariyasi (asosan, Angliya)”, “axloqiy majburiyat va ijtimoiy himoya nazariyasi (Islom huquqi va ayrim post-sovet davlatlari)” kabi nazariyalar amal qilishi aniqlandi. O‘zbekistonning aliment majburiyatlariga oid qonunchiligi “hamjihatlik nazariyasi” va “axloqiy majburiyat va ijtimoiy himoya nazariyasi”ga mos kelishi asoslantiriladi. Zero, O‘zbekiston oila qonunchiligi “er-xotinning o‘zaro hamjihatlik”da yashashi ta‘minlashi hamda o‘zaro ko‘maklashuv “axloqiy va ijtimoiy jihatdan” oila a‘zolarining o‘zaro majburiyati hisoblanishiga tayanadi.

3. Chet davlatlarda oila huquqida aliment majburiyatlari quyidagi huquqiy modellari aniqlandi: qit‘a huquq tizimi (Yevropa qit‘asi), anglo-sakson huquq tizimi, skandinaviya (Nordik) modeli, post-sovet huquq tizimi. Bunda O‘zbekiston aliment majburiyatlari uchun asosiy tavsiyalar sifatidagi quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: doimiy alimentdan ko‘ra vaqtincha va rehabilitatsiya turlari ustuvorligini ta‘minlash, mulk taqsimoti yoki bir martalik to‘lovlar ko‘proq qo‘llash, gender tengligi va mustaqil hayot prinsipi asosiy mezon sifatida qabul qilinishi, bolalarni tarbiya qilish mas‘uliyati alimentni belgilashda asosiy omil bo‘lib hisoblanishi.

4. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun asos sifatida ota-onani uzrli sabablarsiz bolalari oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmasligini va bundan bo‘yin tovlashini kiritish lozim. Shu munosabat bilan OKning 79-moddasida aliment to‘lashdan bo‘yin tovlashga oid qoidalarni aniqlashtirish va bunda alimentni uzrli sabablarga ko‘ra to‘lay olmaslik holatlarini nazarda tutish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. OKdagi aliment to‘g‘risida belgilangan qoidalar asosida alimentlashning ikki xil konsepsiyasini asoslash mumkin.

Birinchi konsepsiya oilaviy-huquqiy tartibga solishda “ta‘minlash majburiyati” va “aliment majburiyati” tushunchalari bir biriga o‘xshash, shu bois oila a‘zolarining ta‘minot berish bo‘yicha huquqiy aloqalarini aliment majburiyatlari

